

2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 5262 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2492 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4415 ta (20,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 25853 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-dekabr holatiga 25853 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,6 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,9 % savdo, 13,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,4 % sanoat, 12,1 % qurilish, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,1 % axborot va aloqa hamda 25,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	21438	25853	20,6	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2760	3473	25,8	13,4
Sanoat	2528	3460	36,9	13,4
Qurilish	2655	3130	17,9	12,1
Savdo	4900	6167	25,9	23,9
Tashish va saqlash	778	892	14,7	3,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	886	1189	34,2	4,6
Axborot va aloqa	253	297	17,4	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	489	603	23,3	2,3
Boshqa turlari	6189	6642	7,3	25,7

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5392 ta), Chiroqchi (2090 ta), Koson (2045 ta), Qarshi (2019 ta) va Kitob (1749 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (876 ta), Muborak (937 ta) hamda Nishon (963 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 25119 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4337 ta (20,9 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdo, 13,5 % sanoat, 13,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,1 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 25,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5161 ta), Chiroqchi (2035 ta), Koson (2009 ta), Qarshi (1976 ta) va Kitob (1726 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Nishon (862 ta), Mirishkor (872 ta) hamda Muborak (906 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar- noyabr oylarida 5262 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.


Yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (1003 ta), Qarshi (450 ta), Chiroqchi (438 ta) va Kasbi (350 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Muborak (157 ta), Dehqonobod (206 ta), Nishon (211 ta), G'uzor (236 ta), Mirishkor (256 ta) hamda Kitob (319 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1538 ta), sanoat (1111 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (856 ta), qurilish (555 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (51 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (119 ta), hamda tashish va saqlash (137 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1- dekabr holatiga 20337 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 8436 ta, oilaviy korxonalar - 1265 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 10132 ta va boshqalar 504 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona



Oilaviy korxonona




Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1- dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 189 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 111 taga yoki 2,4 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1- dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 189 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Qarshi shahri (53 ta), Qarshi (18 ta), Kitob (15 ta) va Nishon (13 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirishkor (4 ta), Shahrisabz tumanlari hamda Shahrisabz shahar (5 ta) hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 139 tasi qo'shma korxonalar, 50 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qashqadaryo viloyati	189	100,0
Qarshi sh.	53	28,2
Shahrisabz sh.	5	2,6
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	10	5,3
Dehqonobod	11	5,8
Qamashi	13	6,9
Qarshi	18	9,5
Koson	12	6,3
Kitob	15	7,9
Mirishkor	4	2,1
Muborak	7	3,7
Nishon	13	6,9
Kasbi	6	3,2
Chiroqchi	6	3,2
Shahrisabz	5	2,6
Yakkabog'	11	5,8


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar - noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 97 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 75 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Qarshi shahar (23 ta yoki jamidagi ulushi 23,6 %), Qarshi tumani (11 ta yoki 11,3 %) va Nishon tumanlari (10 ta yoki 10,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Muborak (2 ta yoki 2,1 %), Shahrisabz (2 ta yoki 2,1 %), Kasbi (3 ta yoki 3,1 %) va Mirishkor tumani (3 ta yoki 3,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 13 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Qozog'iston Respublikasi - 10 ta, Afg'oniston - 10 ta va Turkiya Respublikasi - 9 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (54 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (16 ta), savdo (9 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6 ta), faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (3 ta) tashkil etgan.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1- dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20178 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- dekabr holatiga qaraganda 25,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4297 tasi (21,4 %) Qarshi shahri, 1653 tasi (8,3 %) Qarshi, 1638 tasi (8,1 %) Koson tumani hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jami ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

• Eng katta ulushi

• Qarshi sh
21,4 %

• Qarshi
8,3 %

• Koson
8,1 %

• Chiroqchi
7,9 %

• Shahrisabz sh.
6,9 %

• Kitob
6,9 %

• Qamashi
6,8 %

• Yakkabog'
6,5 %

• Eng kichik ulushi

• Dehqonobod
4,8 %

• G'uzor
4,6 %

• Shahrisabz
4,3 %

• Kasbi
3,8 %

• Muborak
3,5 %

• Nishon
3,1 %


• Mirishkor
3,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20178 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5971 tasi (29,6 %) - savdo, 3341 tasi (16,6 %) - sanoat, 3304 tasi (16,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3006 tasi (14,9 %) - qurilish, 1121 tasi (5,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 851 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 450 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1854 tasi (9,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 4881 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,2 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (937 ta), Chiroqchi (402 ta), Qarshi (399 ta) va Kasbi (326 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (146 ta), Dehqonobod (190 ta), Nishon (191 ta), Mirishkor (228 ta) hamda G'uzor (228 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1530 ta), sanoatda (1107 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (853 ta), qurilishda (554 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (51 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (100 ta) hamda tashish va saqlashda (137 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1- dekabr holatiga 1302 tani tashkil etib, ulardan 1265 tasi yoki 97,2 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 1,8 martaga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,8 % yoki 415 tasi sanoat, 20,1 % yoki 254 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,2 % yoki 243 tasi savdo, 15,7 % yoki 198 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,6 % yoki 33 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % yoki 18 tasi qurilish, 0,7 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 8 tasi axborot va aloqa hamda 6,9 % yoki 87 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qashqadaryo viloyati	647	100,0
Qarshi sh.	93	14,5
Shahrisabz sh.	88	13,6
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	59	9,1
Dehqonobod	6	0,9
Qamashi	32	4,9
Qarshi	60	9,3
Koson	14	2,2
Kitob	28	4,3
Mirishkor	3	0,5
Muborak	15	2,3
Nishon	20	3,1
Kasbi	10	1,5
Chiroqchi	79	12,2
Shahrisabz	99	15,3
Yakkabog'	41	6,3

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 647 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,7

martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Shahrizabz tuman (99 ta), Qarshi shahar (93 ta), Shahrizabz shahar (88 ta) va Chiroqchi tumanlari (79 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mirishkor (3 ta), Dehqonobod (6 ta) hamda Kasbi (10 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,2 % yoki 241 tasi sanoat, 24,6 % yoki 159 tasi savdo, 18,9 % yoki 122 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,0 % yoki 84 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 6 tasi qurilish, 0,6 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 3,4 % yoki 22 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-10 (11)